

## UMUMTA'LIM MAKTABALARIDA INKLUYUZIV TA'LIM OLUVCHILARNI O'QITISH BO'YICHA PEDAGOGIK JARAYONNI TASHKIL QILISH YO'LLARI

*Termiz davlat pedagogika instituti  
boshlang'ich ta'lif yo'nalishi 2-kurs talabasi  
Qarshiyeva E'zoza*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola inkulyuziv ta'lif va inlkyuziv ta'lif to'g'rsidagi qonun, qarorlar qilinayotgan va qat'iy qilinishi belgilangan ishlarning ro'yxati bor. Alovida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, korreksion sinflarga o'quvchilarni qabul qilish tartibi va korriksion sinf bolalarining sog'liq ko'rsatgichi talablari, inklyuziv ta'lif ishtirokchilari, alovida ta'limga muhtoj bo'lgan bola va o'qituvchi munosabatlari, o'qituvchi faoliyatini tashkil etish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lif, alovida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar, nuqsonli bolalar, korreksion sinf, nogiron, munosabat, pedagog, xavfsizlik, imkoniyati cheklangan, qaror, qonun, rivojlanish, sog'lom bolalar, hujjatlar, kamessiya, boshlang'ich sinf.

**Kirish:** Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida maktab ta'limi rivojlantirish masalalari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi avvalida "Ta'lif-tarbiya - bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q. Qanchalik murakkab bo'lmasin, maktab ta'lifida poydevorni bugundan mustahkam qo'yishimiz kerak. Chunki biz ko'p vaqt yo'qotganmiz. Agar kimda kim maktab bu faqat xalq ta'lif vazirligining ishi deb o'ylasa mutlaqo yangilishadi. Maktab ta'lifi sohasidagi islohotlar, vazirliklar va idoralar, tarmoq rahbarlari, barcha darajadagi hokimlar, ilmiy tashkilotlar, ziyorilar, keng jamoatchilikning vazifasi bo'lishi shart va zarur. Shundagina kutilgan natijaga erishish mumkin" - degan edilar. Hozirgi kunda ta'lif sohasiga, ta'lif samaradorligini, sifatini oshirishga barcha kuchlar jalb qilinmoqda. Kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarga ta'lif olish uchun ko'plab shart-sharoitlar yaratilmoqda. Jumladan har bir bolaning ta'lif olish huquqini, har bir bola gender tengligini ta'minlash maqsadida mamlakatimizda inklyuziv ta'lif islohotlari olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi PF-5270-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 29 -apreldagi PF-5712-son "Xalq ta'lifi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lif-tarbiya

va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, farmonlari, 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-son “Alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrdagi 638- son “Alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida’gi ushbu qarorlar umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’lim ishtirokchilarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik jarayonning tashkil qilishi yo‘llarini belgilab beradi.

**Asosiy qism:** Inklyuziv ta’lim (ingliz tilidan olingan bo‘lib, inclusive, inclusion–uyg‘unlashmoq, uyg‘unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma’nolarini bildiradi) nogiron va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘sislarni (diskriminasiyani) bartaraf etish, maxsus ta’limga muxtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko‘ra nogiron bo‘lgan) o‘smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat’iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo‘naltirilgan umumta’lim jarayoniga qo‘sishni ifodalovchi ta’lim tizimidir. Maktabda inklyuziv ta’lim va boshlang’ich tayanch korreksion sinflar aholi ehtiyoji va ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar taklifidan kelib chiqqan holda Xalq ta’limi vazirligi, viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi (keyingi o‘rinlarda — hududiy xalq ta’limi boshqarmasi) buyrug’iga ko‘ra tashkil etiladi. Inklyuziv ta’lim va boshlang’ich tayanch korreksion sinflar tashkil etilgan maktablar faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi hamda hududiy xalq ta’limi boshqarmalari tomonidan metodik ta’minlanadi va muvofiqlashtiriladi. Maktabning inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang’ich tayanch korreksion sinflarning birinchi sinfiga o‘quvchilar ular yetti yoshga to‘ladigan yilda qabul qilinadi. Alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim olish huquqini ta’minlash maqsadida umumta’lim maktablari uchun belgilangan yosh me’yоридан иккى yilga oshgan bolalarni qabul qilishga ruxsat etiladi. O‘quvchilarni inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang’ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish hamda chiqarish hududiy xalq ta’limi boshqarmasi huzurida tashkil etilgan Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya (keyingi o‘rinlarda — psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya) xulosasiga ko‘ra, ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar roziliги bilan amalga oshiriladi. Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya yo’llanmasi o‘quvchilarni inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang’ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilinishiga asos hisoblanadi. O‘quvchilarni inklyuziv ta’lim sinflariga va boshlang’ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish o‘quv yili boshlanguncha hamda o‘quv yili davomida amalga oshiriladi va maktab direktorining buyrug’i bilan

rasmiylashtiriladi. Inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang’ich tayanch korreksion sinflarga yo’llangan har bir o’quvchiga ota-onalari yoki ularning o’rnini bosuvchi shaxslar tomonidan shaxsiy hujjatlar yig’ma jildi rasmiylashtiriladi va maktab rahbariyatiga taqdim etiladi.

- O’quvchining shaxsiy hujjatlar yig’ma jildida quyidagi hujjatlar bo’ladi:
- ota-onalari yoki ularning o’rnini bosuvchi shaxslarning arizasi;
- psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi;
- ta’lim olganligi to’g’risidagi hujjatlar (ta’lim muassasalarida o’qiyotgan bolalar uchun);
- o’qish joyidan ta’limning muddati, o’quv fanlarini o’zlashtirishi va xulq-atvori, o’quvchiga yakka tartibda ko’mak berish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarning batafsil tahlili aks ettirilgan ma’lumotnomalar va tavsifnomalar (ta’lim muassasalarida o’qiyotgan bolalar uchun);
- o’quvchining yashash joyidagi shifoxona bosh vrachi tomonidan imzolangan, uning rivojlanishi tarixidan mufassal ko’chirma.

Shulardan iborat yig’ma jildi bo’lishi kerak. Alovida ta’limga muhtoj bolalar uchun inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang’ich tayanch korreksion sinflarni tashkil qilishda ularning sog’lig’i quyidagicha bo’lishi lozim:

- eshitishda nuqsoni bo’lgan bolalar (eshitish qobiliyatining yo’qotilishi 60 Db gacha bo’lgan rivojlanishida qo’shimcha buzilishlar bo’lmagan bolalar);
- nutqida og’ir nuqsonlar bo’lgan bolalar (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojidagi sustlik, duduqlanish);
- ko’rishda nuqsoni bo’lgan bolalar (ko’rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo’lgan rivojlanishida qo’shimcha buzilishlar bo’lmagan bolalar);
- tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo’lgan bolalar (bolalar serebral falaji, skolioz, poliomiyelit, miopatiya, osteomiyelit, amputasiya, bo’y o’sishining yetishmovchiligi — pakanalik);
- somatik kasalliklar (psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar);
- aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-harakat tizimidagi buzilishi bo’lgan bolalar;
- aqliy rivojlanishi saqlangan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar (o’zi harakat qila oladigan yoki qo’shimcha moslamalar va nogironlik aravachasida harakatlana oladigan bolalar serebral falaji);
- intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar.

Ushbu talablardan sog’lig’i yomon bo’lgan bolalar uylarida alovida ta’lim olishadi yoki maxsus maktab internatlarida ta’lim olishlari mumkin.

Inklyuziv ta'lim har qanday ta'lim oluvchining o'z xususiyatlari, qobiliyatları, va xususiy muhitiga mos ravishda ta'lim olishiga imkoniyat yaratadigan ta'lim tizimi hisoblanadi. Bu o'quvchilarni ajralmaslik va bir-birlarini qo'llab-quvvatlashi, har bir o'quvchining o'zining eng yuqori potentsialini oshirishi uchun, imkoniyat yaratish uchun mo'ljallangan. Inklyuziv ta'lim, har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlari va talablari hisobida o'qitish usullarini o'rganishni va qo'llashni talab qiladi. Inklyuziv ta'limdan ta'lim markazida o'quvchi turadi. Alovida ta'limga muhtoj bolalarning xavfsizligi, salomatligi, ehtiyojlari, darslarda ishtirok etishi, boshqa bolalar bilan teng huquqli ta'lim olishi muhim hisobladi. Inklyuziv ta'lim berish albatta o'qituvchiga katta mas'uliyat yuklaydi. O'qituvchi, avvalo yaxshi muhit yarata olishi bolaga nogironlik ko'zi bilan qaramasligi, ajratmasligi va sinfdagi barcha o'quvchilarni shu muhitga olib kirishi lozim. Pedagog ish faoliyatini tashkil etishda mahalla, ota-onalar, sog'liqni saqlash xodimi, sog'lom va alohida ehtiyojli bor bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarni rejalashtirishi kerak. Jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, do'stona munosabatlarni shakllantira olish, bolalarning ehtiyojlarini qondirish, jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirish padegogning muhim vazifasi hisoblanadi.

O'qituvchi amal qilishi lozim bo'lgan bolaga ijobiy munosabatning pedagogik-psixologik qoidalari:

- Qachonki siz imkoniyati cheklangan bola bilan suhbat qurar ekansiz, hech qachon diqqat markazingizda nogironlik tushunchasi turmasin. Ya'ni bolaga nogiron bola sifatida emas, avvalo bolasifatida qarang;
- Imkoniyati cheklangan bola bilan tanishganingizda albatta bilan qo'l berishib ko'rishing. Chunki bu bolada o'z-o'ziga ishonch sizga nisbatan yaqinlik hissini shakllantiradi. Bunday vaziyatda bolaning qo'l tutishi qiyin, protez qo'l bo'lsa ham, chap qo'lini bo'lsa ham uzatishiga muvaffaq bo'ling;
- Ko'rishda muammosi bo'lgan (umumman ko'rmaydigani) bola bilan uchrashganingizda albatta yonida kimlar borligini aytинг. Imkoniyati cheklangan bolani ham barcha bolalar qatori o'z ismi bilan chaqirishga, o'smir yoshda bo'lsa katta odamga qilinadigandek munosabatda bo'lishga har doim e'tibor qarating;
- Agar bola maxsus aravachada o'tirsa albatta sinf o'quvchilariga aravachani harakatlantirish hamda xavfsizlik qoidalari bilan mukammal tanishtirish lozim;
- Muloqot qilishida muammosi bo'lgan bola biror bir narsa yoki hodisa xususida so'zlayotganda bardoshli bo'ling, uning fikrini keskin bo'lib qo'y mang. Nima xususida so'zlamoqchilagini anglashga harakat qiling.  
Bosiqlik bilan unga o'z munosabatingizni bildiring;

- Eshitishda nuqson bo'lgan bola bilan muloqot qilishda unga to'g'ri qarab, aniq qilib so'zlang. U sizning og'iz artkulyasiyangizni aniq ko'ra olsin. Mujmal bo'lmaning. Uni diqqatini tortish uchun qo'l xarakatlaridan foydalaning, qo'pol bo'lmaning;
- Albatta har bir muloqot jarayonida imkoniyati cheklangan bola bilan o'rtangizda iliq munosabat yaratish xususida bosh qotiring;
- Bolaning ichki imkoniyatlari, shaxsiy muammolari bilan qiziqing;
- Uning imkoniyatlarini kengaytirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga undang.

Natijalar:

t/ r	Maqsadli ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Yil ko'rsatkichlar					
			Joriy holat	2021- yil	2022- yil	2023- yil	2024- yil	2025- yil
1	Inklyuziv ta'lif tizimi joriy qilingan umumiyligini o'rta ta'lif muassalari ulushi	Foizda(umumiyligini o'rta ta'lif muassalarini qilingan umumiyligini soniga nisbatan)	18,4	27	33	39	47	51
2	Umumiyligini o'rta ta'lif muassalarida inklyuziv ta'lif shartlarida ta'lif olyotgan alohida ta'lif ehtiyoji bo'lgan bolalar ulushi	Foizda(alohida ta'lif ehtiyoji bo'lgan bolalarining umumiyligini soniga nisbatan)	16.5	20	24	29	35	40
3	Umumiyligini o'rta ta'lif muassasalarida korreksion sinflarda ta'lif olyotgan alohida ta'lif ehtiyojlari	Foizda(alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarining umumiyligini soniga nisbatan)	—	0.4	1.3	2.2	3.1	4

	bo'lgan bolalar ulushi							
4	Ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarida ta'lif olyigan bolalar ulushi	Foizda(alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarning umumiy soniga nisbatan)	26.8	25	23	21	19	16
5	Uyda yakka tartibda ta'lif olayotgan alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalar ulushi	Foizda(alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarning umumiy soniga nisbatan)	16.8	15	14	13	12	11
6	Musiqqa, rassomchilik, tasviriy san'at, kulolchilik, jismoniy tarbiya va sport, kampyuterda tikuvchilik va boshqa maktabdan tashqari to'garaklarga qatanashayotgan alohida ta'lif ehtiyojari bo'lgan bolalar ulushi	Foizda(alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarning umumiy soniga nisbatan)	3.9	5.8	6.8	7.9	9.9	12

**Xulosa:** Xulosa qilib aytish kerakki o'qituvchi misli yonib turgan sham. O'qituvchi bilim berib dunyoni yoritadi, albatta hamma hammasi o'qituvchiga bog'liq. Inkluziv

ta’lim olayotgan bolalarga sodda lekin samara beradigan ko‘rgazmalardan va metodlardan foydalanish zarur. Inklyuziv ta’limga muhtoj bolaning ta’lim olish samaradorligi oshishi, boshqalar oldida o‘zini noqulay his qilmasligi, boshqa o‘quchilardan ajralib qolmasligi uchun o‘qituvchi pedagogik mahoratiga bo‘lishi lozim. Kasbiy malaka va ko‘nikmalar mukammal egallagamnigi, bolalar bilan ishlashi, ularga mehribon bo‘lishi va dars jarayonini tashkil qila olishi shart. "O‘qituvchi va murabbiylar – yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir".

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.10.2020 yildagi PQ-4860-son "Alohibo ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" qarori
2. Z.N.Mamarajabova, B.Q.Subanova "Inklyuziv ta’lim" o‘quv qo’llanma Toshkent -2022
3. L.R.Muminova , R.Sh.Shomahmudova, Z.M.Ahnedova "Inklyuziv ta’lim" Toshkent -2019
4. R.Shomahmudova "Inklyuziv ta’limning nazariy va amaliy asoslari" Toshkent – 2007
5. R.Sh.Shomahmudova "Mahsus va inklyuziv ta’lim. Xalqaro va milliy tajribalar" Toshkent "chashma print" 2011
6. M.U.Xamidova "Mahsus pedagogika" o‘quv qo’llanma Toshkent – 2018
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida" gi PF-5712-son Farmoni
8. Allaberganova Y., Tursunova S. "BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH" //Interpretation and researches. – 2023. – T. 2. – №. 1.
9. Bahodirovna C. Z., Tursunova S. I. "ON THE EXAMPLE OF RUSSIAN EXPERIENCE IN CREATING PRIMARY SCHOOL TEXTBOOKS" //International Journal of Pedagogics. – 2023. – T. 3. – №. 04. – C. 1-11.
10. Abzairov T. Y., Ibragimov T. I. "METHODS AND TECHNIQUES OF TEACHING RUSSIAN LANGUAGE" //Modern Scientific Research International Scientific Journal. – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 71-84.
11. Isakovna T. S. et al. "BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINI TARBIYALASHDA XALQ OG‘ZAKI IJODINING O‘RNI" //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – T. 25. – №. 1. – С. 38-42.
12. Abzairov, Tahir Yuldashevich, and Turgun Ibodovich Ibragimov. "METHODS AND TECHNIQUES OF TEACHING RUSSIAN LANGUAGE." Modern Scientific Research International Scientific Journal 2.1 (2024): 71-84.
13. Tursunova Saida Isakovna "BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINING OG‘ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH" Вестник КГУ им. Бердаха. № 4(63) ISSN 2010-9075 Том 4 Страницы 158-160

14. Пономарева Л. И., Турсунова С. И. "Теоретические основы проблемы обучения младших школьников элементам рассуждения в процессе знакомства с художественными произведениями" //Вестник Шадринского государственного педагогического университета. – 2023. – №. 2 (58). – С. 53-59.

